

"O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI"

Davronova Feruzabonu¹

¹ O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.05.2025

Revised: 08.05.2025

Accepted: 09.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

sotsial mobillik,
VLKSM, „Kamolot“
yoshlar jamg'armasi,
"Yoshlar ovozi".

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining tarixiy bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar sotsiologik tahlil qilinadi. Yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlari, innovatsion va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, ta'lim, bandlik, ijtimoiy faollik va tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan.

KIRISH. Bugungi murakkab globallashuv davrida har bir jamiyatning taraqqiyoti, eng avvalo, yosh avlodining yuksak intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi va sotsial mobilligiga bog'liq. Bilamizki, yoshlar jamiyatning eng faol va umidli qatlamini tashkil etadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta'lim-tarbiya, bandlik, ijtimoiy faollik hamda innovatsion salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu boisdan ham so'nggi yillarda yoshlar bilan ishlashda yangi, samarali va zamonaviy yondashuvlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim tizimining isloh qilinishi, oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlarining kengaytirilishi, yosh tadbirkorlar uchun kreditlar ajratilishi, yoshlar ishlari agentligi va boshqa tuzilmalar orqali ko'rsatilayotgan yordamlar buning natijasidir. Ayniqsa, qishloq yoshlari uchun oliy ma'lumot olish, kasb-hunar egallash yoki ish bilan band bo'lish imkoniyatlari kengayayotgani sotsial tenglik yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Xalqaro ekspertlar yoshlarga oid davlat siyosati

samaradorligiga asosan yoshlarning umumiy ahvolidan kelib chiqib uch mezon asosida baho beradi. Yoshlar salomatligi darajasi, yoshlarga berilayotgan ta'lim darajasi va yoshlarning ijtimoiy ta'minlanganlik darajasi shular jumlasidandir²².

O'zbekistonda yoshlar siyosati tarixiy bosqichlardan o'tgan bo'lib, bu jarayonda turli tashkilotlar va tizimlar orqali yoshlar bilan ishlashga harakat qilingan. Ularning orasida Komsomol, Kamolot tashkilotlari, Yoshlar Ittifoqi va bugungi kunda amal qilayotgan zamonaviy yondashuvlar alohida o'rinni egallaydi.

Komsomol (Kommunistik yoshlar ittifoqi) 1918-yilda tuzilgan bo'lib, Sovet Ittifoqida faoliyat yuritgan yirik mafkuraviy tashkilotdir. Unga bevosita asos solishda Vladimir Ilyich Lenin g'oyaviy rahbar sifatida muhim rol o'ynagan. Leninning o'zi yangi jamiyat qurishda yoshlar tashkiloti muhimligini ta'kidlab o'tgan. Bu tashkilot 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarni birlashtirib, ularni kommunistik mafkura asosida tarbiyalash, siyosiy faollikka jalb etish, uysizlikka, savodsizlikka qarshi kurashish va kelajakdagi partiya a'zolari sifatida tayyorlashni maqsad qilgan. Komsomol yoshlarning harbiy va siyosiy tayyorgarligi bilan shug'ullangan. O'zbekistonda ham ushbu tashkilot faoliyat yuritgan. SSRda Komsomol bo'limlari 1920-yillarda tashkil etila boshlangan. Komsomol a'zolari maktablar, oliy o'quv yurtlari, sanoat korxonalari va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritgan. Yoshlar yirik qurilishlar, kolxozlar, madaniy tadbirlarga jalb etilgan. Komsomol tizimi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlashda markaziy rol o'ynagan bo'lsa-da, bu faoliyat bir tomonlama mafkuraviy nazorat ostida olib borilgan. Tizim ijtimoiy faollik, mehnat madaniyati, jamoaviylik va intizomni rivojlantirgan bo'lsa-da, barcha tashabbuslar yuqoridan pastga berilgan. Barcha yoshlarning o'z fikrini ochiq bildirishi xavfli deb qaralgan, tashabbus va mustaqil yo'l tutishga imkon berilmagan.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib, mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Komsomolning asosiy vazifasi – yoshlarni kommunistik mafkura asosida tarbiyalash, Sovet hokimiyatiga sodiq bo'lishga undash edi. Sovet Ittifoqi tugatilganidan so'ng, Komsomolning bunday siyosiy tizimi o'z ahamiyatini yo'qotdi. Sovet Ittifoqi qulashi bilan yoshlar siyosati yangi yondashuvlarga asoslangan, ya'ni yoshlarni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlar rivojlana boshladi. Misol uchun, O'zbekistonda Kamolot yoshlar harakati tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi „Kamolot“ yoshlar jamg'armasi O'zbekiston yoshlarining nodavlat xayriya-jamoat birlashmasi bo'lgan. Jamg'armaning asosiy vazifasi – yoshlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy,

²² https://pm.gov.uz/oz/lists/view/2117?sort=received_at

xuquqiy manfaatlari va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish, yoshlarni Konstitutsiya, qonunlar, davlat va hukumat qarorlarini hurmat qilish, ularga amal qilish ruhida tarbiyalash, yoshlar uchun yangi ish joylari yaratish, ularni ijtimoiy himoya qilish masalalarini o'rganish hamda mazkur masalalarni hal etishda hukumat idoralari, hokimliklar, vazirliklar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish. Jamg'armaning viloyat, shahar va tumanlarda bo'limlari bo'lgan. „Kamolot“ jamg'armasining jamoatchilik markazlari joylarda 14 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar istagi va tashabbusi bilan tashkil topgan. Uning mablag'i turli ixtiyoriy pul o'tkazish va xayriyalar hisobiga tashkil topadi, noshirlik, o'yinlar va boshqa tadbirlar hisobiga boyib borgan²³. Tashkilot faoliyati davomida bir nechta ijobiy natijalarga erishdi: minglab yoshlar jamoatchilik, volontyorlik, siyosiy va madaniy hayotga jalb etildi; „Yoshlar ovozi“ kabi tanlovlar orqali yosh iste'dod egalari aniqlanib, qo'llab-quvvatlandi; talabalar uchun „Kamolot stipendiyasi“ joriy qilinib, ularning bilimga bo'lgan ishtiyoqi rag'batlantirildi; yoshlar yetakchilari tayyorlandi — keyinchalik ular davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida faol ishtirok etdilar.

2017-yil 30 iyun kuni O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etish taklifini kiritadi. O'zbekiston prezidenti nega bunday qarorga kelganini quyidagicha izohlaydi: “Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarini modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda jadal olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz taqdiriga daxldor bo'lgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining bugungi kuni va ertangi istiqboli barchamizni o'ylantirishi tabiiy.

Sizlarga yaxshi ma'lum, bundan 16-yil oldin, ya'ni, 2001-yilda tashkil etilgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati o'tgan davr mobaynida yoshlar hayotiga kirib borib, ularning ma'lum bir qismini o'z atrofida birlashtirishga, o'z Dasturi va Ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni imkon darajasida bajarishga harakat qilib kelmoqda. Ayni vaqtda tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mohiyat e'tibori bilan yoshlarning haqiqiy tayanchi va suyanchi bo'lishi zarur bo'lgan "Kamolot" harakati faoliyatida jiddiy kamchilik va nuqsonlar ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda "Kamolot"ning 4 millionga yaqin a'zosi bor. Bu mamlakatimizdagi 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning 40 foizini tashkil etadi.

Bir qarashda, 4 million — salmoqli raqam bo'lib ko'rinadi. Lekin xolisona aytganda, tashkilotga a'zolik ko'p hollarda faqat qog'ozda mavjud, amalda esa aksariyat a'zolar "Kamolot" to'g'risida aniq tasavvurga ega emas, uning maqsad va vazifalarini bilmaydi, o'z

²³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Kamolot_Yoshlar_Jamg'armasi

yetakchilarini tanimaydi, Harakat faoliyatida ishtirok etmaydi. Buning ustiga, ko'pgina viloyat va tumanlarda "Kamolot" tashkilotlari uchun binolar yetishmasligi, ularning moddiy-texnik bazasi nochorligi, zarur mebel va inventarlar, aloqa va tashkiliy texnika vositalari bilan yetarlicha ta'minlanmagani, xizmat mashinalari yo'qligi ham ishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shularning barchasini hisobga olib, mamlakatimizda yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan mutlaqo yangi tashkilot — O'zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etsak, nima deysizlar?"²⁴ Natijada, 2017-yil 30-iyun sanasida Prezident Qaroriga asosan avvalgi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati «Yoshlar Ittifoqi» etib qayta tashkil etildi. Bu o'zgarish yoshlar bilan ishlashni yanada tizimli va innovatsion shaklga o'tkazish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotida munosib o'ringa ega bo'lishiga ko'maklashish kabilar tashkilotning asosiy vazifalari hisoblanadi. Ushbu tashkilot faoliyati davomida yoshlarni rag'batlantirish maqsadida bir necha mukofotlar, xususan, yilning eng faol yoshlari uchun «O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi mukofoti», mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol yoshlar uchun «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni ta'sis etildi (mukofot avval ham bo'lgan). Ta'lim jarayonida a'lo natijalarni ko'rsatgan va faol bo'lgan talabalar uchun to'lov shartnomaning 35 foizini qoplab beruvchi «Yoshlar ittifoqi» stipendiyasi tashkil etildi. Prezidentning aholi o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish borasidagi tashabbusiga asosan, eng shov-shuvli loyihalaridan biri sifatida «Yosh kitobxon» respublika tanlovining an'anaviy ravishda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Respublika tanlovida g'olib bo'lganlarga Prezident sovg'asi — «Spark» avtomobilining berilishi ko'plab yoshlar uchun kitobxonlikka motivatsiya vazifasini o'tab kelmoqda. Yoshlarning biznes tashabbuslari, startup, g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ishsizlarni mutaxassislik va biznes yuritish ko'nikmalari bo'yicha o'qitish maqsadida Ittifoq qoshida «Yoshlar — kelajagimiz» jamg'armasi tashkil etildi. Yoshlar kuni arafasida hududlarda yoshlarning o'z muammolari va takliflari yuzasidan tuman/shahar hokimlari bilan muloqotini ta'minlovchi «Hokim va yoshlar» loyihasi yo'lga qo'yildi²⁵. Bu kabi imkoniyatlar yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. **Prezidentning 19.01.2022 yildagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.** Unda Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv

²⁴ ["Kamolot" nega tugatildi? - Sputnik O'zbekiston, 01.07.2017](#)

²⁵ [Yoshlar ittifoqi yoshlar siyosatini qanday amalga oshirmoqda?](#)

mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.[5]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash yondashuvlari tarixiy bosqichlarda turlicha shakllangan va har bir davr o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Sovet davrida faoliyat yuritgan Komsomol tashkiloti yoshlarni mafkuraviy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi esa yoshlar siyosatini tizimli, kompleks va innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirishga qaratilgan. Har bir tizimning o'z davriga xos afzalliklari va kamchiliklari bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlar yoshlarning huquqlari, manfaatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu orqali O'zbekiston yoshlar siyosati rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://pm.gov.uz/oz/lists/view/2117?sort=received_at
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5106-son Farmoni, 2017-yil 5-iyul.
3. Jo'rayev N., Zamonov A. O'zbekiston tarixi: 11-sinf uchun darslik. –93-bet
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Kamolot_Yoshlar_Jamg%CA%BBarmasi
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/har_bir_mahallada_esklar_etakchisi_buladi
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son
7. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/har_bir_mahallada_esklar_etakchisi_buladi